



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ.....	5
2. Ражабова Хулкар Тошмановна ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	14
3. Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR.....	22
4. Саидова Нигорахон Акмал кизи ПРАВОВАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ ОПЕРАТОРОВ ОНЛАЙН-МАРКЕТПЛЕЙСОВ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДОКТРИНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ.....	35
5. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ЗАЕМЩИКОВ В МИКРОКРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	46
6. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	55
7. Adembayev Aralbay Kuralbayevich TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH.....	62
8. Акбутаев Ойбек Бакирович ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ УМУМИЙ ШАРТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	70
9. Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон кизи ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ ЗАДЕРЖАНИИ.....	79
10. Yadgarov Shohruh SHANXAY NAMKORLIK TASHKILOTI: XALQARO HUQUQ SUBYEKTLILIGI, HUQUQIY MAQOMI.....	86
11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.....	92
12. Primov Baxtiyor Olim o'g'li SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI.....	103



Adembayev Aralbay Kuralbayevich,
 Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: aralbay_adembaev@mail.ru

**TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH
 XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH**

For citation: Adembaev Aralbay Kuralbaevich. LEGAL CLASSIFICATION OF VIOLATIONS OF TRAFFIC SAFETY RULES OR VEHICLE OPERATION REGULATIONS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20377749>

ANNOTATSIYA

Maqolada transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning dolzarb nazariy va amaliy muammolari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur jinoyatni transport sohasida sodir etiladigan boshqa o‘xshash jinoyatlardan, xususan, mansabga sovuqqonlik bilan qarash, xizmat vazifasini lozim darajada bajarmaslik hamda ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘limiga sabab bo‘lish jinoyatlaridan farqlashning muhim yuridik mezonlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: transport xavfsizligi, kvalifikatsiya, jinoyat tarkibi, sababiy bog‘lanish, ayb shakli, maxsus subyekt, o‘xshash jinoyatlar, jinoyat huquqi.

Адембаев Аралбай Куралбаевич,
 Самостоятельный соискатель Каракалпакского
 государственного университета имени Бердаха
 E-mail: aralbay_adembaev@mail.ru

**КВАЛИФИКАЦИЯ НАРУШЕНИЯ ПРАВИЛ БЕЗОПАСНОСТИ ДВИЖЕНИЯ ИЛИ
 ЭКСПЛУАТАЦИИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ**

АННОТАЦИЯ

В статье всесторонне проанализированы актуальные теоретические и практические проблемы квалификации преступления, связанного с нарушением правил безопасности движения или эксплуатации транспортных средств. Также на научной основе рассмотрены критерии отграничения данного преступления от иных смежных составов преступлений в транспортной сфере, в частности, халатности, неисполнения служебных обязанностей, а также причинения смерти по неосторожности, и выработаны соответствующие научные предложения.

Ключевые слова: транспортная безопасность, квалификация, состав преступления, причинная связь, форма вины, специальный субъект, аналогичные преступления, уголовное право.

Adembaev Aralbay Kuralbaevich,

Doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh

E-mail: aralbay_adembaev@mail.ru

LEGAL CLASSIFICATION OF VIOLATIONS OF TRAFFIC SAFETY RULES OR VEHICLE OPERATION REGULATIONS

ANNOTATION

The article comprehensively analyzes the current theoretical and practical issues of qualifying crimes related to the violation of traffic safety rules or the safe operation of vehicles. It also scientifically examines the criteria for distinguishing this crime from other related offenses in the transport sector, including official negligence, failure to perform official duties, and causing death by negligence, and proposes relevant scientific recommendations.

Keywords: transport safety, qualification, crime composition, causal link, form of guilt, special subject, similar crimes, criminal law.

Hozirgi globallashuv sharoitida transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi, avtotransport vositalari sonining ortishi hamda harakat intensivligining kuchayishi transport xavfsizligi masalasini dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammoga aylantirmoqda. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar inson hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga, mulkka hamda atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu bois mazkur qilmishlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qilmishni JKning 266-moddasi bo‘yicha to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish mazkur jinoyat tarkibini o‘xshash tarkibli va boshqa jinoyat tarkiblaridan aniq ajratishga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bunda yo‘l-transport hodisasi tushunchasining mazmunini va uning avtotransport vositasi orqali sodir etiladigan boshqa turdagi huquqbuzarliklardan farqlarini aniqlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi[1].

Binobarin, u yoki bu avtotransport jinoyatini aniqlash imkonini beruvchi mezonlarni tanlashga nisbatan amaliyot sinovidan o‘tgan izchil ilmiy yondashuv zarur.

Jinoyat tarkibini aniqlash muammosi bilan jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish muammosi uzviy bog‘liq va bu pirovard natijada qilmish uchun javobgarlik belgilash uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, ya‘ni qilmishning faktik holatlarini aniq aks ettiruvchi jinoyat-huquqiy normani tanlash, birinchidan, jinoiy harakatlarni jinoyat hisoblanmagan harakatlardan ajratish, qilmishga qonunga muvofiq huquqiy baho berish; ikkinchidan, jinoyat tarkibining alomatlari o‘z ifodasini topgan va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbot qilish talab etiladigan faktik holatlarni aniqlash; uchinchidan, tergovchilar xulosasi va sudyalarda ajrimida qonuniylikka rioya etilishini kafolatlash; huquqni qo‘llash faoliyatida jinoyat huquqi va protsessi vazifalari amalga oshirilishini ta‘minlash imkonini beradi.

Yo‘l-transport jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin[2]:

1) transport vositasining turini va uning transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan jinoyat-huquqiy normada ko‘rsatilgan belgilarga muvofiqligini aniqlash;

2) xavfsizlik qoidalarini buzishning turini, aniqroq aytganda, uning transport vositalari harakati xavfsizligi yoki transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog‘liqligini aniqlash;

3) Yo‘l harakati qoidalari yoki Transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarining haydovchi tomonidan buzilgan bandlarini aniqlash;

4) jinoyat qonunining transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi moddasida nazarda tutilgan oqibatlar xususiyati va ularning og‘irlik darajasini aniqlash;

- 5) transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash;
- 6) jinoyat subyektining belgilarini aniqlash;
- 7) jinoyat tarkibi subyektiv tomonining mazmunini aniqlash;
- 8) jinoyatni kvalifikatsiya qilish natijalarini tegishli protsessual hujjatda yuridik jihatdan mustahkamlash.

JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini o'xshash tarkibli va boshqa jinoyatlardan farqlash uchun birinchi navbatda yo'l-transport jinoyatlarining xususiyatini aniqlash talab etiladi. Mazkur jinoyatlar Jinoyat kodeksi "Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan XVIII bobida jamlangan.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni tasniflash to'g'risidagi masala xususida yuridik adabiyotlarda turli xil fikrlar ilgari surilgan. Ularning mualliflari tasniflash mezonlari sifatida "amaldagi jinoyat qonunchiligi tizimiga asoslanadigan va mazkur qonunchilikning shakllanish sharoitlarida amalda vujudga kelgan transport jinoyatlari to'g'risidagi normalar konstruksiyalarining xususiyatlarini hisobga oladigan turli omillar"[3] dan foydalanadilar. Bu yerda gap zamirida transport vositalarining xususiyatlari va mazkur qilmishlar bevosita obyektining ba'zi bir belgilari yotuvchi tasnif haqida boradi. A.I.Korobeev taklif qilgan bu tasnif quyidagi ko'rinishga ega:

- 1) temir yo'l, havo, dengiz va daryo transport vositalarining xavfsiz faoliyati sohasidagi jinoyatlar;
- 2) yo'l-transport hodisalarining xavfsiz faoliyati sohasidagi jinoyatlar;
- 3) barcha turdagi mexanik transport vositalarining xavfsiz faoliyati sohasidagi jinoyatlar;
- 4) qonun chiqaruvchi tomonidan yo'l-transport jinoyatlari qatoriga kiritilgan boshqa jinoyatlar;
- 5) jinoyat huquqi nazariyasi darajasida yo'l-transport jinoyatlari qatoriga kiritilgan boshqa jinoyatlar[3].

Bundan tashqari, JKda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatiga o'xshash alomatlariga ega bo'lgan boshqa jinoyat tarkiblari ham mavjud. Bular JK quyidagi normalarida nazarda tutilgan qilmishlar: 102-modda ("Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish"); 104-modda ("Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish"); 105-modda ("Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish"); 117-modda ("Xavf ostida qoldirish"); 257-modda ("Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish"); 258-modda ("Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish")[4].

Qonun chiqaruvchi transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilar ekan, transport vositalari harakati xavfsizligini bevosita tartibga soluvchi qoidalarni va ular yo'l-transport hodisasi natijasida buzilgan hollarni nazarda tutadi. Shu tufayli ham qilmishni kvalifikatsiya qilishda eng birinchi vazifa hodisaning xususiyatini, aniqroq aytganda, u yo'l harakati bilan bog'liq yoki bog'liq emasligini aniqlashdan iborat.

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyat deb topilishi uchun mazkur qilmish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan yoki u odam (odamlar) o'lishiga hamda JK 266-moddasida nazarda tutilgan boshqa oqibatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bo'lishi lozim. Yo'l-transport hodisalariga taalluqli bo'lmagan voqealar JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari bilan mos kelmaydi. Bunda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish mavjud bo'lmagan hollar nazarda tutiladi. Ma'lumki, JK 266-moddasi faqat mexanik transport vositasida odamlar yoki yuk tashish, transport vositasini shatakka olish hollariga, shuningdek transport vositasidan faqat bir joydan boshqa joyga ko'chish maqsadida foydalanish hollariga tatbiq etiladi. Avtomobil va mototsikl sportida transport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq tadbirlar (musobaqalar, ko'rgazmali chiqishlar, avtorodeo va h.k.) biz ko'rib chiqayotgandan boshqa qoidalar va o'zga normativ hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Agar transport vositasidan foydalanish jarayonida, jumladan transportga yuk ortish-tushirish, transport vositasini ta'mirlash, qurilish, qishloq xo'jaligi ishlari va boshqa turdagi ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish natijasida badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan, odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lsa, mazkur qoidalarga rioya etilishi uchun ma'sul shaxsning xarakatlari JKning 257-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim[5].

Haydovchi "Yo'l harakati qoidalari"ni buzganmi yoki muayyan ishlarni bajarish masalalarini tartibga soluvchi texnika xavfsizligi qoidalarinimi, degan savolga javob topishda konkret holatlar majmuini, jabrlanuvchining rolini va uning bajarilayotgan ishlarga bo'lgan munosabatini hisobga olish zarur. Qishloq xo'jalik mashinasi, maxsus yoki boshqa xil o'ziyurar mashinani boshqarayotgan shaxs JK 266-moddasiga muvofiq faqat jinoyat transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan holda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq haydovchilar tomonidan sodir etilgan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish va yuz bergan oqibatlar o'rtasida ham sababiy bog'lanish mavjud bo'lishi mumkin. Shu bois, tergov va ishni sudda ko'rishning to'liqligi, har tomonlamaligi va xolisonaligini ta'minlash uchun yo'l-transport hodisasining sababini aniqlashda o'zaro ta'sirga kirishuvchi kuchlar va harakatni tavsiflovchi holatlar majmuini to'liq hisobga olish zarur[6].

Yo'l harakati qoidalari mazkur harakatning bir nechta qatnashchilari tomonidan buzilgan hollarda, agar bu JK 266-moddasida ko'rsatib o'tilgan zararli oqibatlar yuz berishiga olib kelgan bo'lsa, yo'l-transport hodisasi qatnashchilari o'zaro aloqasining uch asosiy modeli mavjud va ularning har biri aybdor shaxslarga alohida jinoyat-huquqiy baho berish bilan bog'liq[7].

Birinchi model yo'l harakati qoidalarini buzuvchi sifatida mazkur harakatning bir ishtirokchisi amal qilishi va unga amalda zarar yetkazilishi bilan tavsiflanadi. Ammo bu yo'l-transport hodisasi boshqa qatnashchisining aybli xulq-atvori natijasida yuz beradi. Bu shaxs ham transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzadi. Masalan, piyoda yo'lning qatnov qismidan transport vositalarining harakat yo'nalishida chapdan o'ngga qarab kesib o'tadi va shu tariqa transportning normal harakatiga halaqit beradi. Haydovchi esa, mazkur piyodani ko'rgan va transport vositasini to'xtatish uchun texnik imkoniyatga ega bo'lgan holda, transport vositasini to'xtatish choralari o'z vaqtida ko'rmaydi. Natijada u piyodani urib yuboradi va uning badaniga og'ir shikast yetkazadi. Ayni holda zarar yetkazuvchi – haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan transport vositasi harakati xavfsizligi qoidalarini buzish JK 266-moddasida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar bilan bevosita bog'lanadi. Yuzaga kelgan vaziyatda haydovchi zararli oqibatlar yuz berishining oldini olish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, undan yo'l harakati qoidalarini o'z vaqtida va aniq bajarish yo'li bilan foydalanmaydi. Shu tufayli ham, haydovchining qilmishida JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining alomatlarini mavjud. Jabrlangan piyodaning yo'l harakati qoidalarini buzishda ifodalangan aybi esa, jazo tayinlashda aybdor haydovchi – zarar yetkazuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi lozim. Shu maqsadda, dastlabki tergov bosqichidayoq ayblovni ta'riflashda jabrlangan piyoda tomonidan yo'l harakati xavfsizligi qoidalarining aybli tarzda buzilishi yo'l harakatining boshqa qatnashchisi – haydovchi tomonidan JK 266-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratgani ko'rsatib o'tilishi kerak.

Yo'l harakati qatnashchilari o'zaro aloqasining **ikkinchi modelida** yo'l harakati qoidalarini buzuvchi va yo'l-transport hodisasidan jabrlanuvchi sifatida ayni bir shaxs amal qiladi. Ammo, birinchi modeldan farqli o'laroq, unga zarar yetkazilishi yo'l harakati boshqa qatnashchisining aybsiz xulq-atvori oqibati hisoblanadi. Mazkur qatnashchining harakatlarida yuz bergan oqibatlar bilan sababiy bog'lanishda bo'lgan qoidabuzarliklar umuman mavjud bo'lmaydi. Masalan, yo'lni yoshi ulug' shaxs kesib o'tayotib, uning qatnov qismidagi o'q chiziq ustida to'xtaydi. Qarshi yo'nalishdagi avtobus signalidan cho'chib, u ortga tislanadi va avtomobil g'ildiraklari ostiga tushadi. Ayni holda zarar yetkazuvchi – avtomobil haydovchisi yo'l harakati qoidalarini buzmagani. Jabrlangan shaxs esa, yo'l harakati qoidalarini buzib, qo'qqisidan orqaga qarab yurgan va shu tariqa transport vositalari harakatiga halaqit bergan, bu esa yo'l-transport hodisasi yuz berishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi modelga tatbiqan zarar yetkazuvchi – haydovchi aybsiz holda ish ko‘rgani va yuzaga kelgan vaziyatda zarar yetkazishning oldini olishga qodir bo‘lmagani bois, harakatlarida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining tarkibi yo‘qligi tufayli JK 266-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Yo‘l-transport hodisasi yuz berishiga olib kelgan avariya holatini yuzaga keltirishda aybdorlik ham, yuz bergan oqibatlarda aybdorlik ham to‘liq jabrlanuvchiga yuklanadi.

Yo‘l harakati qatnashchilari o‘zaro aloqasining **uchinchi modeliga** transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish yo‘l harakatining bir nechta (asosan ikkita) qatnashchilari tomonidan sodir etilishi xosdir. Mazkur shaxslar yetkazgan zarar ular aybli xulq-atvorining umumiy natijasi hisoblanadi. Bu yerda aybdorlarning harakatlari va yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanish aniq va ravshan ko‘rinib turadi. Uchinchi model zarar ikkala aybdorga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilishiga qarab ikki xil ko‘rinishda ifodalanishi mumkin.

Birinchi holda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishda aybdor shaxslarning har biri yo‘l-transport hodisasining boshqa ishtirokchisiga zarar yetkazganlik uchun javobgar bo‘ladi. Ayni paytda ularning har biri ham aybdor, ham jabrlanuvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda ularning har biri sodir etgan harakatlar JK 266-moddasining u yoki bu qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Bu yerda tartibga solinadigan chorrahada ikkala haydovchining aybi bilan yuz bergan yo‘l-transport hodisasi misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Haydovchilardan biri svetoforning qizil chirog‘i yonib turganiga qaramay, chorrahani kesib o‘tishda davom etadi. Ikkinchi haydovchi, buni ko‘ra turib, yo‘l harakati qoidalarini buzgan holda tezlikni pasaytirmaydi va avtomobilni chetlab o‘tish choralarini ko‘rmaydi, svetoforning qizil chirog‘iga to‘xtamagan avtomobil haydovchisiga chiroqli va tovushli signallar berib, harakatni davom ettiradi. Bu yerda ikkala haydovchi ham bir-birini payqagach, to‘qnashuvni chetlab o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lganlar, biroq yuzaga kelgan xavfli vaziyatga e‘tibor bermasdan harakatlanishni davom ettirganlar. Tegishli oqibatlar yuz bergan holda ular JK 266-moddasining birinchi qismi bo‘yicha javobgarlikka tortilishlari lozim. Ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarda (ularga JK 266-moddasida nazarda tutilgan qilmish ham kiradi) zarar yetkazish ishtirokchilarining javobgarligi muayyan qoidalarga bo‘ysunadi, chunki yo‘l-transport hodisasi qatnashchilaridan biriga yetkazilgan zararli oqibatlarda boshqa qatnashchining ham aybi bo‘ladi. Shu tufayli ham, mazkur holat ularning har biriga qilmishiga yarasha jazo tayinlashda inobatga olinishi lozim.

Zarar uchinchi shaxslarga yetkaziladigan ikkinchi holda jinoiy oqibatlarning yuz berishi yo‘l-transport hodisasi ikkala qatnashchisining ham aybli harakatlari natijasi hisoblanadi. Shu tufayli ham, ularning harakatlari bir xil kvalifikatsiya qilinadi. Ayni paytda hodisa qatnashchilarining aybini o‘zaro xususiyatga ega, deb baholash yana bir xulosa chiqarish majburiyatini yuklaydi. Uning mohiyati shundaki, ko‘rsatilgan shaxslardan birining jinoiy oqibatlar yuz berishida aybdorligi ayni paytda hodisa ikkinchi ishtirokchisining javobgarligini yengillashtiruvchi holat sifatida amal qiladi. Yo‘l-transport jinoyatida ulardan biri o‘z qilmishi bilan yetkazgan zarar qancha katta bo‘lsa, bu ikkinchi qatnashchiga jazo tayinlashda uning javobgarligini yumshatish yoki uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi masalani hal qilish tomonga inobatga olinishi lozim.

Shunday qilib, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini yo‘l-transport hodisasining bir nechta qatnashchilari tomonidan bir paytda buzilgan taqdirda, ularning hammasi JK 266-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi kerak. Ulardan har birining harakatlarini kvalifikatsiya qilish o‘z-o‘ziga emas, balki yo‘l-transport hodisasining boshqa qatnashchilariga yetkazilgan zararning og‘irlik darajasiga qarab ko‘rsatilgan moddaning u yoki bu qismi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Transport vositalari haydovchilarining harakatlarini kvalifikatsiya qilish jarayonida ularning jinoyat sodir etilgandan keyingi xulq-atvorini hisobga olish zarur. U doim ham qonuniy bo‘lavermaydi, shu tufayli ham qo‘shimcha jinoyat-huquqiy baho berishni talab etadi. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishda aybdor haydovchining jabrlanuvchining sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lgan harakatlari, agar u jabrlanuvchini bila turib hayot uchun xavfli bo‘lgan holatda, unga yordam ko‘rsatmasdan tashlab

ketgan bo'lsa, JK 266-moddasi va 117-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar haydovchining transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishdagi qilmishi jinoyat deb topilmasa, biroq jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'iga xavf u boshqarayotgan transport vositasi bilan hodisa yuz berishi natijasida tug'ilgan bo'lsa, haydovchi jabrlanuvchiga yordam ko'rsatish burchini bajarmaganligi JK 117-moddasi ("Xavf ostida qoldirish") bo'yicha jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi[8].

Avtomobillarni shatakka olish paytida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasini kvalifikatsiya qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Ayni holda mohiyatan ikki avtomobilni boshqarish borasidagi harakatlarni birlashtirish amalga oshiriladi. Qoidalar haydovchilardan biri yoki ikkalasi tomonidan buzilgan va JK 266-moddasida nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, mazkur modda bo'yicha javobgarlikka qoidalarini buzishda aybdor shaxs tortiladi. Ayni paytda shuni ham qayd etib o'tish lozimki, ko'rib chiqilayotgan holda ayb belgilarini aniqlash haydovchi, ayniqsa shatakka olingan transport vositasi haydovchisi uchun "Yo'l harakati qoidalarini"ning rasman (amalda) buzilgan bandiga rioya etish uchun imkoniyatlari bo'lgan-bo'lmaganligining aniqlanishiga bog'liq bo'ladi. Shunday vaziyatlar ham uchraydiki, haydovchilardan biri yo'l harakati qoidalarini buzgani boshqa haydovchiga manyovr qilish imkonini bermaydi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday holda u yuz bergan oqibatlar uchun javobgar bo'lishi lozim.

Ba'zan yo'l-transport hodisasi natijasida JK 266-moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan zararli oqibatlar yuz berishi ham mumkin. P.V.Zamoskovsev va A.I.Korobeev fikriga ko'ra, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish ko'rib chiqilayotgan jinoyat-huquqiy normaning bir necha qismlarida nazarda tutilgan, ammo bitta jinoyatni hosil qiluvchi zararli oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, moddaning yuz bergan oqibatlardan eng og'iri uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim[9]. B.A.Kurinov qayd etishicha, ayni holda quyidagi qoida amal qiladi: jinoyat qonunining og'ir zararli oqibatlarni keltirib chiqarganlik uchun jazolovchi normasi muayyan jinoyat sodir etilishi natijasida yuz bergan boshqa o'rtacha og'ir o'xshash zararli oqibatlarining barchasini ham qamrab oladi[10].

Yana shuni ham alohida qayd etib o'tish lozimki, transport jinoyatlariga nisbatan jarima jazosi ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, Germaniyada 1990-1998-yillarda barcha hukmlarning 80%da aybdor shaxslarga jarima jazosi qo'llanilgan. Yaponiyada esa bu ko'rsatkich undan ham yuqoridir. Rivojlangan davlatlarda jarima jazosiga katta e'tibor qaratilishiga sabab, birinchidan, jarima qo'llanilsa davlatning ozodlikdan mahrum qilishni qo'llashdagi xarajatlariga ehtiyoj qolmaydi; ikkinchidan, jarima jazosini ijro etish katta mablag' sarflashni talab etmaydi; uchinchidan, davlat byudjetiga naqd pul tushishi ta'minlanadi. Transport vositalari bilan jinoyatlarni sanksiyalari tahlil qilinganda, jarima jazosining hissasi juda kamligi ko'zga tashlanadi. 266-modda "Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish" jinoyatining faqat birinchi qismida eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima belgilangan xolos. Ikkinchi va uchinchi qismlarida jarima jazosi ko'zda tutilmagan. Shunday ekan, dunyoning yetakchi davlatlari jarima jazosiga e'tibor qaratayotgan davrda, iqtisodiy mazmundagi jazolarni, jahon tajribasiga suyanib ko'proq qo'llash davri keldi. Sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida albatta iqtisodiy omillarni inobatga olish zarurdir.

Transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlarga jazo tayinlash amaliyotini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilgan jinoyat ishlarining kam qismiga jarima jazosi qo'llanilgan. Holbuki, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlar toifasiga kiradi. Jinoyat kodeksining boshqa qasddan sodir etiladigan jinoyatlari bilan – 167 modda (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) yoki 168 modda (firibgarlik) jinoyatlarining sanksiyasida maksimal ozodlikdan mahrum qilish muddati sifatida o'n yil belgilangan, shuningdek eng kam oylik ish haqining olti yuz baravarigacha jarima jazosi tayinlanishi muqobil jazo sifatida ko'rsatilgan. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatuvchi 266-moddada ham ozodlikdan mahrum qilishning maksimal muddati o'n yil qilib

belgilangan, ammo shu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari sanksiyalarida jarima jazosi umuman ko'rsatilmagan.

Rivojlangan davlatlar tajribasi, shuningdek, mamlakatimizda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga tayangan holda JKning 266-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlariga jarima jazosini muqobil jazo sifatida joriy qilish maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Любимов Л.В. Проблемы квалификации автотранспортных преступлений, связанных с нарушением правил дорожного движения и эксплуатации транспортных средств // Актуальные проблемы борьбы с преступностью: Сборник научных статей. – Орел: МВД РФ, Орловский юридический институт, 1998. – С 12–16. (Lyubimov L.V. Problems of qualification of motor transport crimes related to violation of traffic rules and operation of vehicles // Current problems of combating crime: Collection of scientific articles. - Orel: Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, Orlovsk Law Institute, 1998. - P. 12-16.)
2. Турсунов А.С. Йўл-транспорт ҳодисаларига оид жиноятларни квалификация қилиш масалалари // Ҳуқуқ ва бурч. – Тошкент, 2019. – №4. – Б. 45–49. (Tursunov A.S. Issues of Qualification of Crimes Related to Road Traffic Accidents // Law and Duty. - Тошкент, 2019. - No 4. - Б. 45-49.)
3. Коробеев А.И. Транспортные преступления. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2003. – С. 65. (Korobeev A.I. Transport Crimes. - St. Petersburg: Legal Center Press, 2003. - P. 65.)
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi O'RQ-2012-XII-son qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Law No. 2012-XII of the Republic of Uzbekistan dated September 22, 1994. // National database of legislative data of the Republic of Uzbekistan) www.lex.uz.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2015 йил 26 июндаги “Транспорт ҳаракати ёки ундан фойдаланиш ҳавфсизлигига қарш жиноятлар билан боғлиқ ишлар юзасидан суд амалиётининг айрим масалалари тўғрисида”ги 10-сонли қарори. //Тошкент, 2015-6.15. (Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated June 26, 2015 №10 "On Some Issues of Judicial Practice in Cases Related to Crimes Against the Safety of Traffic or its Operation." //Tashkent, 2015.)
6. Сайдазимов М.Н., Ёкубова Б.Д. Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш ҳавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятини тергов қилишда тергов экспериментининг ўзига хос хусусиятлари. // Development of pedagogical technologies in modern sciences. International scientific-online conference. V1 2024. p-147-153.(Saydazimov M.N., Yokubova B.D. Specific Features of the Investigative Experiment in Investigating the Crime of Violation of Traffic Safety Rules or Operation of Vehicles. // Development of pedagogical technologies in modern sciences. International scientific-online conference. Vol. 1, 2024. p. 147-153.)
7. Любимов Л.В. Проблемы квалификации автотранспортных преступлений, связанных с нарушением правил дорожного движения и эксплуатации транспортных средств // Актуальные проблемы борьбы с преступностью: Сборник научных статей. – Орел: МВД РФ, Орловский юридический институт, 1998. – С. 12–16. (Lyubimov L.V. Problems of qualification of motor transport crimes related to violation of traffic rules and operation of vehicles // Current problems of combating crime: Collection of scientific articles. - Orel: Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, Orlovsk Law Institute, 1998. - P. 12-16.)
8. Эрматов Ғ., Хайдаров Ш. Хавф остида қолдириш учун жиноий жавобгарлик. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – Б. 43. (Ermatov G., Haydarov Sh. Criminal Liability for Endangerment. - Тошкент: ТДЮИ, 2012. - P. 43.)
9. Замосковцев П.В., Коробеев А.И. Квалификация транспортных преступлений органами внутренних дел: Учебное пособие. – Хабаровск, 1999. – С. 29–30. (Zamoskovtsev P.V., Korobeev

- A.I. Qualification of Transport Crimes by Internal Affairs Bodies: Textbook. - Тошкент, 2020. - Б. 29-30.)
- 10.** Куринов Б.А. Автотранспортные преступления (квалификация и наказание). – М., 1970. – С. 48. (Kurinov B.A. Motor Transport Crimes (Qualification and Punishment). - М., 1970. - P. 48.)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.